IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

SURXONDARYO SHAROITIDA KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASHISH DASTURLARINI SAMARALI BOSHQARISH

Musurmonova Mohichehra O‘rol qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti 4-kurs talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20423062

Anotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sharoitida kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini samarali boshqarish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida hududda aholi daromadlari, bandlik darajasi va kambag‘allik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Statistik ma’lumotlar asosida daromadlarning oshishi va bandlikning yaxshilanishi kambag‘allik darajasining kamayishiga olib kelishi aniqlangan. Shuningdek, regressiya modeli yordamida kambag‘allikka ta’sir etuvchi asosiy omillar baholanib, ularning o‘zaro ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari kambag‘allikka qarshi kurashishda iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ish natijalari hududiy rivojlanish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, aholi daromadi, bandlik, ijtimoiy yordam, transfertlar, regressiya tahlili, iqtisodiy rivojlanish, hududiy siyosat, Surxondaryo viloyati, kambag‘allikni qisqartirish.

Kirish

Hozirgi taraqqiyot davrida kambag‘allik masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va inson kapitali rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Har bir davlatning ijtimoiy siyosatida aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va iqtisodiy faollikni kengaytirish orqali kambag‘allikni kamaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda kambag‘allikka qarshi kurashishda tizimli islohotlar olib bormoqda. Aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, bandlik va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag‘allik darajasi bosqichma-bosqich qisqarib bormoqda. Biroq mavjud uslubiyotlarni takomillashtirish, samaradorlikni oshirish hamon dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikka qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, bu borada kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da kambag‘allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish va hududlarni kompleks rivojlantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan.[1] Vaholanki, mamlakatda kambag‘allikka qarshi kurashishda mahalliy darajadagi boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida “mahallabay ishlash” tizimi joriy etildi. Mazkur tizim asosida har bir hudud kesimida aholi muammolarini o‘rganish, ularning daromad manbalarini yaratish hamda bandligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.[2] So‘nggi yillarda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan yangi yondashuvlar asosida “kambag‘allikdan farovonlik sari” tamoyili joriy etilib, bunda aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.– Toshkent, 2022. https://lex.uz/docs/-5841063
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti materiallari.
“Mahallabay ishlash tizimini joriy etish va aholi bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. https://president.uz/oz/lists/view/4194

etish hamda manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi takomillashtirildi.[3] Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish maqsadida yangi institutsional tuzilmalar shakllantirildi. Misol sifatida olib qaraydigan bo‘lsak, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish samaradorligini oshirish uchun maxsus agentlik va hududiy markazlar tashkil etildi, bu esa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirdi.[4]

Kambag‘allikni qisqartirishda innovatsion yondashuvlar, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, hududiy ehtiyojlarga moslashtirilgan mexanizmlar va ijtimoiy sheriklikning roli katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mavjud uslubiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilish va ularni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarur. Mazkur ish kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqish, amaliy mexanizmlarni takomillashtirish hamda davlat va jamiyat hamkorligini kuchaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

Tadqiqotning ushbu bosqichida kambag‘allik darajasini aniqlash jarayonida yuzaga kelayotgan mavjud noaniqliklar, turli xil moliyaviy vositalarning ko‘pligi hamda ularni taqsimlash mexanizmlaridagi chalkashliklar va aniqlik yetishmasligi kabi muammolar atroflicha tahlil qilindi. Ijtimoiy yordam dasturlarining hududlar kesimida bir xil darajada taqsimlanmasligi, aholining bandligini ta’minlash, yangi va barqaror daromad keltiruvchi ish o‘rinlarini yaratish bilan bog‘liq dolzarb masalalarni hal etish yuzasidan amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan takliflar ishlab chiqildi. Kambag‘allikni qisqartirish jarayonida davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslardan oqilona va adolatli foydalanish, ushbu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, shuningdek, samarali va uzluksiz monitoring tizimini shakllantirish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tahlillar asosida ishlab chiqilgan takliflar mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodologiyani yanada takomillashtirish, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbollarni aniq baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kambag‘allik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari François Bourguignon[5], Theo Eicher, Stephan Klasen[6], Martin Ravallion[7], Nanak Kakwani[8] kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng miqyosda tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida iqtisodiy o‘sish jarayonlari va kambag‘allik darajasining pasayishi o‘rtasidagi uzviy aloqalar turli nazariy

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti materiallari.
“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar.
https://president.uz/oz/lists/view/7537
[4] O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali materiallari.
“Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish chora-tadbirlari”.https://gov.uz/uz/news/view/103588
[5] F.Bourguignon The growth elasticity of poverty reduction: Explaining heterogeneity across countries and time periods. T.Eicher, S.Turnovsky (Eds.), Inequality and growth. Theory and policy implications, MIT Press, Cambridge, MA (2003)
[6] M.Grosse, K.Harttgen, S.Klasen Measuring pro-poor growth in non-income dimensions World Development, 36 (6) (2008), pp. linkinghub.elsevier.com/retrieve/pii/S0305750X08000417.
[7] M.Ravallion Growth and poverty: Evidence for developing countries in the 1980s Economics Letters, 48 (3–4) (1995), pp. 411- 447
[8] N.Kakwani Poverty and economic growth with application to Côte d’Ivoire Review of Income and Wealth, 39 (2) (1993), pp. 121-139

hamda empirik yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Aaditya Erumban va Gaaitzen J. de Vries[9] tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda rivojlanayotgan davlatlarda kambag‘allikni kamaytirish jarayonlari hamda ishlab chiqarish infratuzilmasidagi o‘zgarishlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik empirik tahlillar asosida chuqur o‘rganilgan.

Hududiy darajada olib qaraydigan bo‘lsak kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarining natijadorligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilma holati va aholi tarkibi bilan chambarchas bog‘liq. Asosan, qishloq hududlarida kambag‘allik darajasi yuqoriroq bo‘lishi, mehnat resurslaridan to‘liq foydalanilmasligi va daromad manbalarining cheklanganligi ushbu muammoning murakkabligini yanada oshiradi. Surxondaryo viloyati sharoitida kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini boshqarishda hududiy differensial yondashuvni qo‘llash, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib iqtisodiy faollikni oshirish muhim ahamiyatga ega. Kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini samarali boshqarish ko‘p omilli va kompleks jarayon bo‘lib, unda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional mexanizmlarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular asosida ishlab chiqiladigan taklif va tavsiyalar hududiy rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini oshirish yo‘llarini chuqur o‘rganish uchun turli ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalaniladi. Eng avvalo, tahlil va sintez metodi orqali mavjud ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rganilib, kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi. Taqqoslash (komparativ) metodi yordamida turli hududlar, xususan Surxondaryo viloyati va boshqa viloyatlar o‘rtasidagi kambag‘allik darajasi, aholi daromadlari va bandlik ko‘rsatkichlari o‘zaro solishtirilib, hududiy tafovutlar aniqlanadi. Statistik tahlil metodi asosida rasmiy ma’lumotlar, jumladan, aholi daromadlari, bandlik darajasi, ijtimoiy yordam hajmi kabi ko‘rsatkichlar dinamikasi o‘rganilib, ularning o‘zgarish tendensiyalari baholanadi. Korrelyatsion va regressiya tahlili metodlari orqali kambag‘allik darajasi va unga ta’sir etuvchi asosiy omillar – daromadlar, bandlik, investitsiyalar hamda ijtimoiy yordam dasturlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasi aniqlanadi. Bu esa mavjud muammolarni ilmiy asosda tushuntirish va ularni bartaraf etish bo‘yicha asosli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuvdan foydalanilib, kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlari yagona tizim sifatida ko‘rib chiqiladi va uning tarkibiy elementlari – iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mantiqiy umumlashtirish metodi asosida olingan natijalar tizimlashtirilib, ilmiy xulosalar shakllantiriladi. Amaliy jihatdan esa, ekspert baholash usuli va kuzatish metodlari yordamida hududlarda, xususan Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan kambag‘allikka qarshi dasturlar samaradorligi o‘rganilib, mavjud kamchiliklar aniqlanadi. Ushbu yondashuvlar asosida kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Muhokama va natijalar

O‘zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi doirasida kambag‘allikni qisqartirish masalalari bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda va aholining hayot sifati darajasini tubdan oshirishda nihoyatda katta ahamiyat kasb etib, hukumat

[9] Erumban A. A., de Vries G. J. Structural change and poverty reduction in developing economies //World Development. – 2024. – T. 181. – C. 106674.

milliy rivojlanish strategiyasida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha bir qator amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqayotgan bo’lsada, fikrimizcha, bu jarayon murakkab hamda ko‘plab omillar bilan bevosita bog‘liqligini inobatga olish lozim. Mazkur sababdan, ushbu yo’nalishni chuqur o‘rganish va jahon amaliyotidagi xalqaro tajribalarni lozim darajada tahlil qilish kambag‘allikka qarshi samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratib, mavzuning global muammo sifatida dolzarbligi va uni qisqartirish masalasi bugungi kunda O‘zbekiston uchun iqtisodiyijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri desak aslo mubolag’a qilmagan bo’lamiz.[10] O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni qo‘llashga oid dasturlarni kengaytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy yordam dasturlarining manzilliligini oshirish, jumladan, bo‘sh ish o‘rinlarini raqamli platformalarda taqdim etish, kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan oilalar va hududlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi va soddalashtiradi. [11]

Surxondaryo viloyati bo‘yicha 2020–2025-yillar statistik ko‘rsatkichlari

Yil	Daromad (ming so‘m)	Bandlik (%)	Kambag‘allik (%)
2020	16 200	63.9	21
2021	18 900	64.5	18.5
2022	20 800	64.2	16.2
2023	22 000	63.8	14.8
2024	22 300	63.7	12.5
2025	**22 572,2**	64.8	10.8

Surxondaryo viloyati bo‘yicha 2020–2025-yillar kesimida shakllantirilgan statistik ma’lumotlar aholi daromadlari izchil o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu kambag‘allik darajasining pasayishiga olib kelgan. 2020-yilda 21%ni tashkil etgan kambag‘allik darajasi 2025-yilga kelib 10,8%gacha kamaygan. Bandlik darajasi ham bosqichma-bosqich oshib borgan. Ushbu tendensiyalar hududda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini aks ettiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida quyidagi ko‘p omilli regressiya modeli ishlab chiqildi:

$$P=35-0.0008Y-0.25E+0.12T$$


Ushbu modelda P – kambag‘allik darajasi (%), Y – aholi daromadi, E – bandlik darajasi (%), T – transfertlar ulushi (%) sifatida qabul qilingan. Modeldagi 35 soni boshlang‘ich qiymat sifatida qaraladi. Bu shuni anglatadiki, agar barcha omillar hisobga olinmasa yoki nolga teng deb olinsa, kambag‘allik darajasi shartli ravishda 35 foiz atrofida bo‘lishi mumkin. Albatta, amalda bunday holat bo‘lmaydi, lekin modelni tuzishda bu ko‘rsatkich zarur hisoblanadi. Daromad ko‘rsatkichi oldidagi –0.0008 qiymat daromad bilan kambag‘allik o‘rtasida teskari bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Ya’ni, odamlarning daromadi oshgani sari kambag‘allik kamayadi. Masalan, daromad 1000 birlikka oshsa, kambag‘allik taxminan 0,8 foizga kamayadi. Agar daromad 10 000 birlikka oshirilsa, kambag‘allik qariyb 8 foizga kamayishi mumkin. Bu daromadning juda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Bandlik darajasi ham muhim rol o‘ynaydi. Modeldagi –0.25

[10] Tashtanova D. Milliy taraqqiyot strategiyasi: O‘zbekistonda kambag ‘allikni qisqartirish masalalari va xalqaro tajribalar tahlili //Nordic_Press. – 2024. – T. 1. – №. 000001
[11] Shuxrat O‘g‘li A. S. O ‘zbekistonda kambag ‘allikni qisqartirishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish //Yangi O‘zbekiston, Yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 84-91.


koeffitsienti, bandlik 1 foizga oshsa, kambag‘allik o‘rtacha 0,25 foizga kamayadi. Masalan, bandlik 60 foizdan 65 foizga chiqsa, kambag‘allik qariyb 1,25 foizga kamayadi. Bu esa ish o‘rinlari yaratish kambag‘allikni kamaytirishda muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Transfertlar bo‘yicha ko‘rsatkich esa biroz boshqacha natijani beradi. +0.12 qiymat shuni anglatadiki, transfertlar ulushi oshgan sari kambag‘allik ham biroz oshishi mumkin. Ya’ni, yordam ko‘paygani bilan muammo to‘liq hal bo‘lmaydi. Aksincha, ayrim hollarda odamlar yordamga o‘rganib qolib, faol ishlashga kamroq intilishi mumkin. Transfertlar muammoni faqat vaqtinchalik yengillashtiradi, lekin asosiy yechim emas. Modelning ishonchliligi $R^2 \approx 0.91$ bilan baholangan. Bu juda yaxshi natija hisoblanadi. Ya’ni, kambag‘allikdagi o‘zgarishlarning 91 foizi aynan shu uchta omil — daromad, bandlik va transfertlar orqali tushuntiriladi. Kambag‘allikni kamaytirish uchun eng avvalo odamlarning daromadini oshirish va ularni ish bilan ta’minlash kerak. Ijtimoiy yordamlar esa qo‘shimcha vosita sifatida foydali, lekin asosiy yechim bo‘la olmaydi.

Surxondaryo aholisining daromadi va kambag'allik drajasi

№	Daromad (ming so‘m)	Kambag‘allik darajasi (%)
1	1800	18.5
2	2100	17.2
3	2500	15.8
4	2900	14.3
5	3200	13.5



Surxondaryo viloyatida aholi daromadlari va kambag‘allik darajasi o‘rtasida aniq teskari bog‘liqlik mavjud. Daromadlarning oshishi kambag‘allik darajasining izchil kamayishiga olib kelmoqda. Nuqtalarning regressiya chizig‘iga yaqin joylashuvi ushbu bog‘liqlikning yuqori darajada barqaror ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar kambag‘allikka qarshi kurashishda daromadlarni oshirish va iqtisodiy faollikni kuchaytirish muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Kambag‘allikni qisqartirish innovatsion labaratoriyalari loyihasining asosiy yo‘nalishlari[12]

Kambag‘allikni qisqartirish innovatsion labaratoriyalari loyihasining 7 ta asosiy asosiy yo’nalishlarini Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi B.K.Zaripov ishlab chiqqan: 1)Barqaror va o'sish va rivojlanishni ta'minlash; 2)Innovatsion startaplarni rivojlantirish; 3)Samarali loyihalarni amaliyotga joriy etish; 4)Yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish; 5)Innovatsion yechimlar; 6)Ilmiy tadqiqotlar; 7)Resurslarni aniqlashtirish.

Xulosa

Surxondaryo viloyati sharoitida kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini samarali boshqarish masalalari kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Kambag‘allikni qisqartirish faqatgina ijtimoiy yordam choralarini kengaytirish bilan emas, balki iqtisodiy omillarni, ayniqsa aholi daromadlari va bandlik darajasini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Surxondaryo viloyatida aholi daromadlarining nisbatan pastligi, qishloq hududlarida iqtisodiy faollikning cheklanganligi hamda ish o‘rinlarining yetarli emasligi kambag‘allik darajasining yuqoriligiga sabab bo‘layotgan asosiy omillar sifatida baholandi. Shu bilan birga, daromadlar tarkibida transfertlar ulushining yuqoriligi aholining bir qismi hali ham ijtimoiy yordamga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ekonometrik tahlillar, xususan regressiya modeli natijalari kambag‘allik darajasi bilan daromad va bandlik o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Ya’ni, daromadlar va bandlik darajasining oshishi kambag‘allikning pasayishiga olib keladi. Biroq ijtimoiy transfertlarning ta’siri qisqa muddatli bo‘lib, u uzoq muddatda iqtisodiy faollikni to‘liq rag‘batlantira olmaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar asosida kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi.

[12] Kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish yo’llari: B.K.Zaripov Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi – 2025.

Jumladan, hududiy yondashuvni kuchaytirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy yordam tizimini manzilli va shaffof qilish hamda monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab berildi. Kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini samarali boshqarish ko‘p omilli va tizimli jarayon bo‘lib, u iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional choralarni uyg‘un holda amalga oshirishni talab etadi. Aynan shu yondashuv orqali Surxondaryo viloyatida kambag‘allik darajasini barqaror kamaytirish va aholi farovonligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.– Toshkent, 2022. https://lex.uz/docs/-5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti materiallari. “Mahallabay ishlash tizimini joriy etish va aholi bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. https://president.uz/oz/lists/view/4194
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti materiallari. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar. https://president.uz/oz/lists/view/7537
4. O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali materiallari. “Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish chora-tadbirlari”.https://gov.uz/uz/news/view/103588
5. F.Bourguignon The growth elasticity of poverty reduction: Explaining heterogeneity across countries and time periods. T.Eicher, S.Turnovsky (Eds.), Inequality and growth. Theory and policy implications, MIT Press, Cambridge, MA (2003)
6. M.Grosse, K.Harttgen, S.Klasen Measuring pro-poor growth in non-income dimensions World Development, 36 (6) (2008), pp. linkinghub.elsevier.com/retrieve/pii/S0305750X08000417.
7. M.Ravallion Growth and poverty: Evidence for developing countries in the 1980s Economics Letters, 48 (3–4) (1995), pp. 411- 447
8. N.Kakwani Poverty and economic growth with application to Côte d’Ivoire Review of Income and Wealth, 39 (2) (1993), pp. 121-139
9. Erumban A. A., de Vries G. J. Structural change and poverty reduction in developing economies //World Development. – 2024. – T. 181. – C. 106674.
10. Tashtanova D. Milliy taraqqiyot strategiyasi: O‘zbekistonda kambag ‘allikni qisqartirish masalalari va xalqaro tajribalar tahlili //Nordic_Press. – 2024. – T. 1. – №. 000001
11. Shuxrat O‘g‘li A. S. O ‘zbekistonda kambag ‘allikni qisqartirishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish //Yangi O‘zbekiston, Yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 84-91.
12. Kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish yo’llari: B.K.Zaripov Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi – 2025.